

O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK YORDAM.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10429442>

Asilova Sanobar Xatambojeva

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda mamlakatimizda o'quvchilar uchun ko'rsatilayotgan pedagogik-psixologik yordam, shuningdek ta'lim muassasalarida bitiruvchilar uchun kasb-hunarga yo'naltirish borasida olib borilayotgan amaliy ishlarini haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar

zamon talablari, kasb-hunar, mehnat, ta'lim jarayonlari, pedagogik-psixologik yordam, psixologik xizmat, kasb-hunarga o'qitish, hamkorlik ishlari.

Har bir jamiyatning boyligining manbayi, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boylikning negizi ostida mehnat yotadi. Ma'naviy yetuk va barkamol, o'z kasbini sevuvchi yoshlar yurt ravnaqiga munosib hissa qo'sha oladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda tub islohatlar amalga oshirildi. Jumladan ta'lim, ilm-fan sohasida ham tub islohatlar olib borildi. Bu islohatlar bevosita kelajak avlodni barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qilishga qaratilgan. Anashunday islohatlardan biri maktab bitiruvchilarini kelajakda o'zlari istagan yo'nalishda muvofaqiyatga erishishlari uchun ularga ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish borasida pedagogik-psixologik xizmat ko'rsatish ishlari tashkillanganligidir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatori mamlakatimizda ham ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish muhim masala sifatida qarab kelinmoqda. Respublikamizda har bir ta'lim muassasalarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlari izchil amalga oshirilib, yosh avlodni kasbga yo'naltirishning ilmiy va amaliy masalalari o'z yechimini topib kelmoqda. Bugungi kunda ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligini ta'minlash muammolari dolzarbligicha qolayotgan davrda aynan o'quvchilarni maktab kezaridan boshlab kasb-hunarga yo'naltirish kelajakda mehnat bozori talablaridagi kasb kadrleri yetishib chiqishiga zamin yaratadi. Yoshlarni mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda ta'lim tizimi, xususan, kasb-hunar kollejlari va professional maktablar muhim o'rinni

tutadi. Ish bilan band bo'lmagan aholini, xususan yoshlarni, kasb-hunarga o'qitishni tashkil etish bo'yicha barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda kasbga o'rgatishning yaxlit tizimi shakillantirilgan bo'lib, ushbu tizim quyidagilarni qamrab oladi: Kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar, kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallardagi kasb-hunarga o'qitish maskanlari, nodavlat ta'lim muassasalari. Bu tizimlarni har birida ish beruvchilar talabi asosida bilim va malakalar beriladi. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy kvalifikatsiyalar, Malaka oshirish va qayta tayyorlash ishlari olib boriladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini 7-sinfdan boshlab kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish, ularni dastlabki kasbiy tayyorgarligini tashkil etish, yuqori sinflarda zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish hamda ularning har tomonlama yetuk malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash, shuningdek yoshlar orasida o'zini-o'zi band qilish kabi mehnat shakillarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"¹⁵⁰gi qarori loyihasi tayyorlandi va muhokama uchun e'lon qilindi. Qaror loyihasida bir qator takliflar berilgan bo'lib, unga ko'ra yangi tizimning amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o'quvchilarni kasb-hunar egallash va o'zini o'zi band qilish orqali xizmatlar ko'rsatish (frilansing) yo'nalaishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o'quvchilarning ma'lumotlar bazasini shakillantirish, 8-9-sinf o'quvchilariga dasturchi, dizayner, tarjimon kabi istiqbolli kasblar uchun poydevor bo'ladigan bilim va ko'nikmalar berish, o'quvchilarning kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida 9-sinfdan so'ng kelajakdagi aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish, 10-11-sinf o'quvchilarini tanlov fanlari yo'nalishidagi (variantiv) o'quv reja asosida kasb-hunarga yo'naltirish nazarda tutilgan.

Sharq allomlaridan biri hisoblangan Nizomiy Ganjaviy shunday jumalarni yozgan edi:

O'qib o'rgangi har bitta hunar,
Hunarmandga bir kun foyda keltirar!
Hunaringdan bir kun yetarsan baxtga,

¹⁵⁰ <https://qalampir.uz/uz/news/evgeniy-sisoev-abdulaziz-komilov-qabulida-boldi-25796>

Hunarsiz kim yetar toj ila taxtga?!

Insonni baxtga olib keluvchi, uning yashashini yaxshilovchi-uning kasbi, orttirgan hunari ekanligini Sharqning buyuk olimi Farobiy ham o'z asralarida ko'rsatib o'tgan edi. Bunday ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazishda albatta tarbiya, adabiyot darslari qo'l keladi. Maktab bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish pedagoglarni dars jarayonlarida o'quvchilar uchun kasb-hunarga oid bilimlar berish va albatta kasb-hunarning inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirib, yetkazib bera olishdan iboratdir. Har bir mavzuni tushuntirish jarayonida mahoratli pedagog albatta kasb-hunarga mavzuni bog'lab keta oladi. Maktab psixologlari tomonidan o'tkazilingan metodikalar natijasi yordamida o'quvchi yoshlarni aniq bir kasb yoki hunarga yo'naltirish ishlarini tashkillash albatta o'z samarasini beradi. Hamkorlik ishlari jarayonlarida pedagog-psixologlar o'quvchining maktab davridan kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, hech bo'lmaganda bitta kasb yoki hunarni aniq tanlab olishlari uchun ko'maklashadilar. Shuningdek psixologlar tomonidan o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda kasb-hunar tanlashga yo'naltirgan tavsiyalar ham o'quvchilardagi motivatsiyani shakillantirib faoliyatga yetaklashga asos bo'la oladi. Psixolog maktablardagi ish jarayonlarida o'quvchilarning har birida yashirin qobiliyat borligini va uni yuzaga chiqarish uchun pedagoglardan e'tibor va qo'llab-quvvatlash talab etilishini o'qituvchilarga yetkaza olishi kerak. O'qituvchilar uchun dars jarayonidan tashqari, mustaqil ta'lim jarayonlarida, sinf soatlarida, jamoatchilik topshiriqlarini bajarishda va turli hil ko'rik-tanlovlarda o'quvchilarning ishtrokini ta'minlash orqali qobiliyatli o'quvchilarni aniqlab olishlariga imkon tug'iladi. O'quvchilar bilan shu qobiliyatlariga qarab kasb-hunar haqida suhbatlashish, ularni fikrini eshitish ahamiyatlidir. Ko'pgina hollarda o'quvchilar o'zi tanlagan kasb haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Kasblar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi uchun albatta o'quvchiga pedagogik yordam zarur bo'ladi. Dunyoda mavjud kasblar, bugungi kunda mehnat bozorida yuqori o'rinda turadigan kasblar, hududlardagi ma'lum kasbiy mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyojlar, kelajakda qaysi kasblarga bo'ladigan talablar yuqori darajada bo'lishi mumkinligi, shun kabi savollarga asoslangan ochiq darslarni tashkillash o'quvchilar uchun foydalidir. Bundan tashqari psixologlar tomonidan o'qituvchi va ota-onalar uchun trening tashkillash ham ijobiy samara beradi. Treningda psixolog olim Anvar Jalolovning " Kasb qanday tanlanadi? " mavzusida yoshlarni kasb tanlashda bosib o'tadigan bosqichlari bilan tanishtirib o'tishi tavsiya etiladi. Quyida ana shu bosqichlarni ko'rib chiqamiz:

1-bosqich. Kabs tanlashga o'quvchini aqlan va ruhan tayyorlash.

2-bosqich. Kasbning ta'rifi va tabiati haqida bilim berish.

3-bosqich. Qiziqish tushunchasini ochib berish.

4-bosqich. Qobiliyat tushunchasini ochib berish va o'quvchida qobiliyatni aniqlash.

5-bosqich. Kasb tanlovini amalga oshirish va algoritimini ochib berish.

6-bosqich. Ilovalar asosida kasb tanlovini tajriba asosida amalga oshirish.

Bundan ko'rinib turibdiki o'quvchi yoshlar kasb tanlashda ma'lum bir bosqichni bosib o'tadilar. Yoshlardagi kasb tanlash yo'lidagi bunday jarayonlarni o'rgangan psixolog olimlar ularda istak, tilak-havas, xohish, irodaviy harakatlar qatiyatlilik o'zlarini oldilariga aniq maqsad qo'yishga asos bo'lib xizmat qilishlarini aytib o'tishadi. Kasb-hunar tanlash bu murakkab, lekin zaruriy jarayon bo'lib, insonni kelajagini va yaxshi yashash imkoniyatlarini yaratuvchi, shuningdek jamiyatda o'z o'rnini topib borib, unda foydali mehnat qilish hisoblanadi. Anashu muhim tushunchani maktablarda kasb-hunar tanlash jarayonlarida o'quvchilar ongiga yetkaza olish o'quvchilarga berilgan eng yaxshi ko'makdir. Chunki, har bir kasb-hunarning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Tanlangan kasb-hunar esa albatta insonni o'zini yaxshi yashashi uchun foydali va jamiyatga naf keltirishi lozimdir. O'quvchilar shuni anglagan holatda keajagini tasavvur etib qaror qabul qilishlari kerak. Qaror qabul qilishda esa pedagog-psixologlar tomonidan berilgan har bir tushuntirish o'quvchilar uchun asqotadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, jamiyatimiz yangi talablar va o'zgarishlar asosida jadal rivojlanib bormoqda. Yangi kadrlarni tayyorlash va ularni zamon talablari asosida tarbiyalab borish davr talabidir. Bu borada mamlakatimizda e'tirof etishga arzigulik tub islohatlar olib borilmoqda. Hususan jamiyat uchun kerakli bo'lgan kasb egasi va foydali hunar egalarini yetishib chiqishiga ko'maklashish ta'lim sohasidagi dolzar masalalardan hisoblanadi. Inson kasb-hunar tanlash jarayonida o'z kelajagini to'g'ri anglashga, tushunib yetishga qodir bo'ladi. Kasb-hunar tanlash jarayonida insonda havas, orzu, mayl, ishtiyoq, xafsala bo'lmasa u hech qanday kasb yoki hunarni egallay olmaydi. O'quvchilarning kasb-hunar egallashlarida pedagogik-psixologik yordam ular uchun albatta zarur. Sababi o'quvchilarning bolalikdan shakillangan orzu-havas va intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish o'quvchining qiziqishlarini yanada shakillantiradi. Agar o'quvchida hali tanlov bo'lmasa pedagog-psixologlar tomonidab berilgan, bilimlar, tavsiyalar o'quvchilar uchun to'g'ri tanlov qabul qilishlarida turtki bo'la oladi. To'g'ri qaror qabul qilish, kasb yoki hunarni to'g'ri

tanlash o'quvchi uchun muhimdir. Agar inson o'zi sevgan kasb-hunarni egallasa kelajakda albatta ravnaq topadi. Tanlagan kasbi yoki hunari ortidan ko'plab yutuqlarga erishishi mumkin. Maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlar uchun kelajak kasbini tanlash va qaror qabul qilish jarayonlari muhim hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek tanlangan kasb avvalo shaxsga manfaatli, qolaversa jamiyatga foyda keltira olishi kerak. Bu borada maktablarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borayotgan pedagog-psixologlar uchun quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

- O'quvchilarni kasb-hunar haqidagi bilimlarini kengaytirib borish
- O'quvchilar bilan kasbga yo'naltiruvchi metodikalar o'tkazish
- Kasb-hunarni inson uchun zarurati aks etgan video roliklar tayyorlash va o'quvchilarga taqdim etish
- O'quvchilarni kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar, universitet va insitutlarda tashkil etilgan "Ochiq eshiklar" kuniga olib borish
- Kasb-hunar ortidan muvofaqiyatga erishib, el arqog'ida yurgan insonlar bilan uchrashuvlar tashkil etish
- O'quvchilarni to'g'ri tanlov qabul qilishlarida ko'maklashish
- O'quvchilar o'zi tanlagan kasb yoki hunarni jamiyatdagi nufuzi va mohiyatini to'la anglay olishi uchun ko'mak berish
- Har bir o'quvchining tanlagan kasbi haqidagi tasavvurlarini kengaytirib boyitish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Г. Н. Эшчанова (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 82-85.
2. Mirzaliyevna, S. Z. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI IJODKORLIKKA O 'RGATISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI (O 'QISH VA ONA TILI O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI MISOLIDA". Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 598-603.
3. INNOVATIVE MODEL OF SHAPING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION IN THE PROCESS OF CREATING PROBLEM SITUATIONS AND ITS CONTENT. Innovativ

achievements in science 2022. Kalendarova Zarafshon Kalbaevna Senior Lecturer, Department of Education, Kokand University, Kokand, Fergana region.

4. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(1), 17-20.